

# Repatriatsiya reyslarida sotuv ochiq

**2020 16 September**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z Vatanlariga qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi 2020-yil sentyabr oyida Rossiya Federatsiyasi (Moskva, Sankt-Peterburg, Rostov-na-Donu) shaharlaridan Toshkentga charter qatnovlarga erkin sotuv ochilganini ma'lum qiladi.

Parvozlarni jadvali bilan aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin.

Yo'nalish	Reys raqami	Uchish/ketish vaqti	
Moskva - Toshkent	HY 3604	12:05/18:00	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Moskva - Toshkent	HY 3614	16:45/22:40	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Moskva - Toshkent	HY 3614	23:30/05:15+1	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Rostov - Toshkent	HY 3648	10:50/16:40	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Rostov - Toshkent	HY 3648	20:20/01:50+1	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Sankt-Peterburg - Toshkent	HY 3632	13:40/20:30	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Sankt-Peterburg - Toshkent	HY 3632	17:40/00:30+1	<a href="#">Chipta sotib olish</a>
Sankt-Peterburg - Toshkent	HY 3632	09:45/16:35	<a href="#">Chipta sotib olish</a>

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga parvoz qilish faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, PCR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (qatnov jo'nashidan 72 soatdan ko'p bo'lmaganda) taqdim etilgan holda ruxsat beriladi. PCR ma'lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, AJ mobil ilovasi orqali, shuningdek, "Uzbekistan Airways " AJning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlar tilaymiz!